

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



O.X.Namidov

2023 y

“VIJDON ERKINLIGINING XALQARO VA MILLIY HUQUQIY
ASOSLARI”

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	220000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalisi:	60220300 – Tarix (Islom tarixi va manbashunosligi)

Buxoro-2023

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
VEEX1205	2023-2024	2	4
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek	4	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Manbashunoslikka kirish	60	90	150

1. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishning maqsadi – Talaba yoshlar tafakkurida vijdon erkinligining mazmun mohiyati, vijdon erkinligi insonning ajralmas huquqlaridan biri hisoblanishi, globallashtuv va diniy jarayonlari hamda zamonaviy diniy harakatlari, diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmining davlat va jamiyat xavfsizligiga salbiy ta'sirini bilish va unga qarshi kurashishda nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Fanni o'qitishning vazifalari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida vijdon erkinligi masalasiga bag'ishlangan moddaning o'rin egallashi, vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligi masalalari, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning mazmuni bilan talabalarning bilim va malakasini shakllantirish, diniy va dunyoviy jarayonlarga nisbatan mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish; diniy aqidaparastlikning profilaktikasi va unga qarshi kurashda egallangan nazariy bilimlarni amaliy hayotda qo'llash talabning mustaqil ta'lim olishda egallangan bilimlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Mavzu: Vijdon erkinligining xalqaro va milliy huquqiy asoslari fanning maqsad va vazifalari.

Vijdon erkinligi va diniy e'tiqodning mazmun-mohiyati. Din, din falsafasi, diniy e'tiqod, aqida, ilohiyot tushunchalarining mohiyati. Dinning funksiyalari va ijtimoiy ahamiyati. Dinlarning tasnifi. Dinlar paydo bo'lishining geografik va xronologik tasnifi.

2-Mavzu: Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar

Diniy tashkilotlar faoliyati. Konfessiya tushunchasi. Konfessiyalar faoliyati. Diniy e'tiqod erkinligi. Dinlarning vujudga kelishi. Dinlarda vijdon erkinligiga oid masalalarning namoyon bo'lishi.

3-Mavzu: O'zbekiston Respublikasidagi diniy tashkilotlar

Diniy tashkilot, diniy jamoa, diniy idora, diniy o'quv yurtlarining mazmun-mohiyati. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy tashkilotlar. O'zbekistonda dinning davladan ajratilganligi.

4-Mavzu: Diniy urf-odatlar va marosimlar

Diniy urf-odatlar va marosimlar. Diniy tashkilotlarning xayriya va madaniy-ma'rifiy faoliyati. Dindorlar va diniy tashkilotlarning xalqaro aloqalari va mulqotlari

5-Mavzu: Kiber makonda diniy e'tiqod targ'ibotining ijtimoiy xavfi.

Kibernakon, kiber terrorizm, kiber zo'ravonlik tushunchalarining mohiyati. Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda diniy targ'ibot usullari. Hozirgi davrda virtual diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati.

6-Mavzu: Islom dinida e'tiqod erkinligining namoyon bo'lishi.

Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar. Payg'ambarlik va vahiylikning talqini. Islom dini ta'limoti va marosimlari. Islom dinining muqaddas manbalarida diniy bag'rikenglik va e'tiqod erkinligi.

7-Mavzu: Islom dinining ilk yo'nalishlarga bo'linib ketishi.

Islom oqimlari va yo'nalishlarining paydo bo'lishi, e'tiqoddagi bo'linishlarning sabablari va oqibatlari. Islom dinida paydo bo'lgan tarqatqichlikning e'tiqod erkinligiga ta'siri. Tarikat namoyandalarning e'tiqodiy masalalardagi qarashlari

8-Mavzu: Zamonaviy diniy harakatlar va sektalar.

Islom va boshqa diniy aqidalar natijasida shakllangan diniy ta'limotlar tarixi. Xalqaro diniy tashkilotlar faoliyatining yo'nalishlari. Islom hamkorlik tashkiloti. O'zbekiston konstitutsiyasida vijdon erkinligi huquqining ifodasi. O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonun qabul qilinishining tarixi va uning ahamiyati.

9-Mavzu: Dunyoviy bilimlar va diniy e'tiqod birligiga erishishning ahamiyati

Yangi O'zbekistonda dunyoviy va diniy ta'lim tarbiyaga munosabat, diniy ta'limning yo'nalishlari. Diniy ta'limning g'oyalari va usullari. Dinga estetika yondashish, diniy axloq, axloqiy qadriyatlar. O'zbekiston yoshlarining diniy manbalardagi axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarni o'rganishning ahamiyati.

10-Mavzu: Diniy bag'rikenglikning diniy manbaviy asoslari

Diniy manbalarda bag'rikenglik ildizlarining yoritilishi. E'tiqod erkinligining qonunda kafolatlanishi. Diniy va zamonaviy tadqiqotlarda bag'rikenglik tamoyilining tahlili.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

(Laboratoriya ishlari). (Seminar mashg'ulotlari). (Kurs ishi). (Mustaqil ta'lim) o'qir rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi)

Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Vijdon erkinligining xalqaro va milliy huquqiy asoslari fanining maqsad va vazifalari
2. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar
3. O'zbekiston Respublikasidagi diniy tashkilotlar
4. Diniy urf-odatlar va marosimlar
5. Kiber makonda diniy e'tiqod targ'ibotining ijtimoiy xavfi.
6. Islom dinida e'tiqod erkinligining namoyon bo'lishi.
7. Islom dinining ilk yo'nalishlarga bo'linib ketishi.
8. Zamonaviy diniy harakatlar va sektalar.
9. Dunyoviy bilimlar va diniy e'tiqod birligiga erishishning ahamiyati
10. Diniy bag'rikenlikning diniy manbaviy asoslari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur.

Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

1. Vijdon erkinligining xalqaro va milliy huquqiy asoslari fanining maqsad va vazifalari.
2. Vijdon erkinligi va diniy e'tiqodning mazmun-mohiyati.
3. Vijdon va e'tiqod erkinligining ta'rifi.
4. Konfessiya tushunchasining mohiyati va O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi.
5. Diniy tashkilotlarning zamonaviy dunyoviy me'yorlarga moslashuvining ahamiyati.
6. Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar.
7. Eshxatologiyaning mohiyati: qiymat va oxirat dunyosi.
8. Islom oqimlari va yo'nalishlarining paydo bo'lishi sabablari, e'tiqodidagi bo'linishlarning sabablari va oqibatlari.

9. Kiber makon, kiber terrorizm, kiber zo'ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati.
 10. Ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot ist'emoi madaniyatini tarbiyalashning zarurati.
 11. Islom va boshqa diniy aqidalar sinkretlashuvi natijasida shakllangan diniy ta'limotlar tarixi.
 12. Missionerlik targ'ibotida uslub va vositalarning zamonaviylashuvi: kiber makonda mafkuraviy tahdidlar.
 13. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan missionerlik harakatlari va ular faoliyatining oqibatlari.
 14. Diniy aqidaparastlik (fanatizm), ekstremizm paydo bo'lishining ijtimoiy tarixiy zaminlari va rivojlanishi.
 15. O'zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlarga qarshi kurashning yo'nalishlari.
 16. O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi.
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyixalar, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, masalalar yechish referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Talaba yoshlar tafakkurida vijdon erkinligining mazmun mohiyati, vijdon erkinligi insonning aqalmas huquqlaridan biri hisoblanishi, globallashuv va diniy jarayonlari hamda zamonaviy diniy harakatlari, diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmining davlat va jamiyat xavfsizligiga salbiy ta'sirini bilish va unga qarshi kurashishda nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida vijdon erkinligi masalasiga bag'ishlangan moddaning o'rin egallashi, vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligi masalalari, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning mazmuni bilan talabalarining bilim va malakasini shakllantirish, diniy va dunyoviy jarayonlarga nisbatan mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish; diniy aqidaparastlikning profilaktikasi va unga qarshi kurashda egallangan nazariy bilimlarni amaliy hayotda qo'llash talabaning mustaqil ta'lim olishda egallangan bilimlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Talaba dunyo haqidagi eng qadimgi va zamonaviy bilimlarning mutanosibligi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning professional faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish, davlat siyosatiga dahldorlik tuyg'usini shakllantirish, ijtimoiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish haqida *malakasiga ega bo'lishi kerak*.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;

- interfaol keys-stadilar;
 - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
 - guruhlarda ishlash;
 - taqdimotlarni qilish;
 - individual loyihalar;
- jamoab bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. «Viidon ekinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'RO-699-son Qonun. 5.07.2021 yil. Yangi tahriri.
2. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2023.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini bigalilka barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
4. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. - Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. - 264 b.
5. Ravimjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. - T.: «O'zbekiston faylasufi milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 304 b.
6. Isoqonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. - T.: OOO «Complex print», 2020. - 198 b.
7. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. - T.: Lesson Press, 2021. - 128 b.
8. Sherimuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. - T.: Noshir, 2016. B.314-499.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'llimnini qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston.. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini bigalilka barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
5. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon. Toshkent: O'zbekiston, 2019.

6. K. S.Guttenplan, J.Hornsby, C. Janaway. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK: 2003. R - 341.
7. A.Azami. Vvedenie v xadisovedenie. Kazan: 2011
8. A.Fitrat. Tanlangan asarlar - Toshkent: Ma'naviyat, 2010 - 301 b
9. Abu Xomid G'azzoliy. Kimei saodat//Ikki dume saodatiga eltuvchi bilim. - Samarqand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019
10. Runniy J. Masnaviy. 40 rivoyatga sharx. - Toshkent: Navruz, 2019
11. Islomov Z., Haydarov I. Xristianlik: ibodatxona, ibodat va marosimlari. - Toshkent: Qagnus nashriyoti, 2020.
12. G'oyibnazarov Sh. Islom terrorizmgga qarshi. - Toshkent: "O'zbekiston" NMTU, 2021.
13. David L. McMahan. The Making of Buddhist Modernism. - Oxfordshire: "Oxford University Press", 2008.
14. Todd M. Johnson. Religious Adherents of the World by Continent and Region // Religions of the World: A Comprehensive Encyclopedia of Beliefs and Practices / J. Gordon Melton, Martin Baumann. - Oxford, England: "ABC CLIO", 2010.

Axborot manbalari

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.gov.uz.

Buxoro davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Fan/modul uchun mas'ulalar

Rajabova R.Z.. -

BuxDU, Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası o'qituvchisi.

Taqrizchilar: Namozov B.B

BuxDU, Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori

Sharipova O.T.

BuxDU, Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası dotsenti

